

GOLSHTIN ZOTLI QORAMOLLARNING ETOLOGIK KO'RSATKICHLARI

Axtamova Munira Tuychiyevna

Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti

Qurbonova Shaxnoza Ergashevna

Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti v.b.dotsenti,

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7905716>

Annotatsiya: Maqolada ratsioniga "Imnamak" ozuqaviy qo'shimchasi kiritib o'stirilgan podani takror to'ldirishga mo'ljallangan golshtin zotli tanalarning etologik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. "Imnamak" preparati berib o'stirilgan 18 oylik tanalarda ozuqa qabul qilish, tik va yotgan holatda kavsh qaytarish uchun sarflagan vaqtlari ko'proq bo'lib, umumiy faollik indeksi nazorat guruhidagi tanalarga nisbatan 0,053 birlikka (7,5 %) yuqoriroq bo'lgan.

Kalit so'zlar: golshtin zoti, tanalar, etologiya, kavsh qaytarish, ozuqa qabul qilish, umumiy faollik indeksi.

Kirish. Chorvachilik sohasida mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu hayvonlarning biologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda qulay oziqlantirish sharoitlarini yaratishdir. Bu borada olib boriladigan ishlar ularning fe'l-atvor xususiyatlari va hayotiy ehtiyojlari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

Ko'pgina ilmiy tadqiqotlarning natijalari shundan dalolat beradiki, qoramollar podasini yuvosh, shu bilan birga ozuqa iste'mol qilish reflekslari kuchli bo'lgan qoramollar bilan to'ldirib borish keyingi avlodlarda bu xususiyatlarning mustahkamlanib borishiga va oson boshqariladigan qoramol podalarini vujudga keltirishga zamin yaratadi [1,3,7].

Hayvonlarning fe'l-atvor xususiyatlari ularning tashqi muhit sharoitlariga moslashishini belgilab beruvchi funksiyasidir. Ularni o'stirish jarayonida hayvonlarda biologik ehtiyojlarga qarab oziqlantirishning ma'lum shart sharoitlariga nisbatan adaptatsiya shakllanib boradi. Shunga mos ravishda hayvonlarda asosiy fe'l-atvor belgilari shakllanadi [4,5,6].

Tadqiqotning maqsadi golshtin zotiga mansub urg'ochi tanalarning etologik ko'rsatkichlariga oziqlantirish omilining, xususan, "Imnamak" ozuqaviy qo'shimchasining ta'sirini o'rganishdan iborat.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi "Karpato-ola chashmasi" fermer xo'jaligida 2020-2022 yillar davomida olib borildi. Xo'jalikka Germaniyadan olib kelingan golshtin zotiga mansub 12 oylik urg'ochi tanalardan juft analoglar uslubida 3 ta guruh tashkil qilindi. Birinchi guruh (nazorat)ga 15 bosh urg'ochi tanalar birlashtirilib, ular xo'jalikdagi ozuqalardan foydalanib muvozanatlashtirilgan rasion asosida, ikkinchi va uchinchi (tajriba) guruhlariga 15 boshdan tanalar kiritildi va ularning asosiy ratsioniga har bir boshga kuniga 30 gramm "Imnamak" preparati kiritilib oziqlantirildi. Preparat 30 kun davomida konsentrat ozuqalarga aralashtirilib individual ravishda berildi.

Tajribadagi hayvonlarning asosiy hayotiy faoliyati – etologik ko'rsatkichlari 12, 15, 18 oylik yoshlarida va birinchi tug'im yoshida o'rganildi. Hayvonlarning fe'l-atvor ko'rsatkichlari V.I.Velikjanin uslubida [2] elementar hayotiy aktlar uch sutka davomida kuniga olti soatlik kuzatuv – xronometraj o'tkazish yo'li bilan aniqlandi. Hayvonlarning etologik faolligining asosiy ko'rsatkichi sifatida umumiy faollik indeksi olindi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Tadqiqotlar natijasida quyidagi ma'lumotlar olindi (1-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qoramollar yoshining oshib borishi bilan ularning asosiy hayotiy jarayonlari, fe'l-atvor xususiyatlari o'zgarib, murakkablashib boradi. Xususan, 12 oylikdan 18 oylikkacha bo'lgan davrda yoshining ortib borishi bilan tik holatda bo'lish vaqti kamayib borgan: nazorat guruhida bu kamayish 23,7 % ni, I tajriba guruhida – 22,8 % ni, II tajriba guruhida esa 22,9 % ni tashkil qilgan. Shunga mos ravishda ularning yotgan holatda bo'lish vaqti oshib borgan: 18 oylik yoshda yotgan holatda bo'lish vaqti 12 oylik yoshdagiga nisbatan nazorat guruhida 53 daqiqa (38,9 %) ga, I tajriba guruhida 52 daqiqa (39,4 %)ga, II tajriba guruhida 52 daqiqa (39,0 %) ga oshgan.

1-jadval

Hayvonlar fe'l-atvor harakatlarning yoshiga qarab o'zgarish dinamikasi, daqiqa,

$$\bar{X} \pm S\bar{x} \quad (n = 5)$$

Ko'rsatkichlar	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
12 oylikda			
Tik turish, jami	224±0,53	228±0,62	227±0,58
Sh.j. ozuqa qabul qilish	92±0,38	96±0,42*	95±0,45
Kavsh qaytarish	41±0,29	45±0,32*	44±0,34
Yotgan holatda, jami	136±0,63	132±0,65	133±0,64
Sh.j. kavsh qaytarish	78±0,39	80±0,32	80±0,36
Uyqu	49±0,23	50±0,26	49±0,27
Umumiy faollik indeksi	0,586±0,01	0,613±0,02	0,608±0,01
15 oylikda			
Tik turish, jami	183±0,57	189±0,70	188±0,64
Sh.j. ozuqa qabul qilish	101±0,36	105±0,39*	106±0,38*
Kavsh qaytarish	46±0,27	51±0,26*	50±0,27*
Yotgan holatda, jami	177±0,39	171±0,52	172±0,46
Sh.j. kavsh qaytarish	81±0,30	84±0,34*	83±0,32*
Uyqu	52±0,24	51±0,22	50±0,23
Umumiy faollik indeksi	0,633±0,008	0,667±0,007*	0,664±0,008*
18 oylikda			
Tik turish, jami	171±0,76	176±0,69	175±0,72
Sh.j. ozuqa qabul qilish	103±0,48	108±0,51*	107±0,49*

Kavsh qaytarish	60±0,23	68±0,29**	67±0,28**
Yotgan holatda, jami	189±0,68	184±0,72	185±0,60
Sh.j. kavsh qaytarish	91±0,38	97±0,48**	96±0,43**
Uyqu	63±0,36	60±0,42	61±0,38
Umumiy faollik indeksi	0,705±0,02	0,758±0,01**	0,750±0,01**
I tug'im yoshida			
Tik turish, jami	201±0,52	206±0,60	207±0,58
Sh.j. ozuqa qabul qilish	81±0,16	83±0,15*	82±0,17*
Kavsh qaytarish	116±0,48	120±0,51*	121±0,53*
Yotgan holatda, jami	159±0,44	154±0,42	153±0,43
Sh.j. kavsh qaytarish	73±0,58	77±0,64*	78±0,66*
Uyqu	35±0,36	32±0,48	32±0,54
Umumiy faollik indeksi	0,750±0,00 3	0,778±0,004*	0,780±0,005*

Izoh: *P< 0,05

**P< 0,01

Ta'kidlash lozimki, tajriba guruhlaridagi tanalarda tik turgan holatda bo'lish vaqti nazorat guruhiga nisbatan barcha o'stirish davrlarida ko'proq, yotgan holatda bo'lish vaqti esa aksincha kamroq bo'lgan.

Ma'lumki, organizmning tinch dam olish vaqtining davomiyligi oziqlantirish tartibining optimal bo'lishi bilan bog'liq. Dam olish vaqtida hayvondagi barcha harakatlar sezilarli darajada cheklanadi, tashqi ta'sirotlarga javob reaksiyasi sustlashadi va o'zi uchun qulay bo'lgan (komfort) pozitsiyani egallaydi, masalan, gavdaning oldingi tomoni biroz ko'tarilgan joyni tanlab dam oladi.

“Imnamak” ozuqaviy qo'shimchasini qabul qilgan tajriba guruhlaridagi tanalarda ozuqa qabul qilish, tik holda kavsh qaytarish va yotgan holatda kavsh qaytarish harakatlarining vaqtlari nazorat guruhiga nisbatan barcha davrlarda kattaroq bo'ldi. Ushbu harakatlarga nazorat guruhidagi tanalarga nisbatan I tajriba guruhidagi tanalar 12 oylik yoshida 10 daqiqa (4,7 %), II tajriba guruhidagi tanalar 8 daqiqa (3,8 %); 15 oylikda tegishli 12 daqiqa (5,2 %) va 11 daqiqa (6,3 %) ko'proq vaqt sarflaganlar. Bu tajribadagi hayvonlar nazorat guruhiga nisbatan faolroq holatda bo'lganligidan, ularda ovqat hazm qilish jarayonlarining jadalroq kechganligidan dalolat beradi. Bunda guruhlararo farqlar ishonchli darajada (P< 0,05 va P< 0,01) bo'ldi.

G'unajinlar tuqqanidan so'ng birinchi tug'im sigirlarda tik holatda bo'lish vaqti 18 oylikdagiga nisbatan nazorat guruhida 30 daqiqaga (17,5 %), I tajriba guruhida 30 daqiqaga (17,0 %); II tajriba guruhida 32 daqiqaga (18,3 %) oshgan, yotgan holatda bo'lish vaqti esa mos ravishda 18,9; 19,5 va 20,9 % ga kamaygan.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, tajriba guruhlaridagi sigirlarda nazorat guruhiga nisbatan faollik yuqoriroq bo'lgan. Ozuqa qabul qilish, tik va yotgan holatda kavsh qaytarish harakatlari uchun sarflangan vaqt I tajriba guruhidagi sigirlarda nazorat guruhiga nisbatan 10 daqiqa (3,7 %), II tajriba guruhida esa 11 daqiqaga (4,1 %) ko'proq bo'lgan ($P < 0,05$).

Qoramollar yoshining ortib borishi bilan umumiy faollik indeksi barcha guruhlarda oshib borgan. Bu ko'rsatkich I tug'im yoshidagi sigirlarda 12 oylikdagiga nisbatan nazorat guruhida 0,164 birlikka (27,9 %), I tajriba guruhida 0,615 birlikka (26,9 %) va II tajriba guruhida 0,172 birlikka (28,3 %) oshgan.

Umumiy faollik indeksi tajriba guruhlaridagi hayvonlarda barcha o'stirish davrlarida nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Umumiy faollik indeksi 12 oylik yoshda I tajriba guruhidagi tanalarda nazorat guruhida nisbatan 0,027 birlikka (4,6 %), II tajriba guruhida 0,022 birlikka (3,7 %); 15 oylik yoshda mos ravishda 0,034 birlikka (6,0 %) va 0,031 birlikka (4,9 %); 18 oylik yoshda 0,053 birlikka (7,5 %) va 0,045 birlikka (6,4 %); I tug'im yoshidagi sigirlarda – 0,028 birlikka (3,7 %) va 0,030 birlikka (4,0 %) yuqori bo'ldi. Ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlar ishonchli darajada ($P < 0,05$ va $P < 0,01$).

Xulosa. Podani to'ldirish uchun mo'ljallangan tanalar ratsioniga "Imnamak" ozuqaviy qo'shimchasini kiritish va g'unajinlar yelinini faol massaj qilish ularning umumiy faolligini yuqori darajada bo'lishiga, sanoat texnologiyasi sharoitiga yaxshi moslashadigan yuvosh, shu bilan birga serharakat qoramollar podasini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

References:

1. Ахтамова, М. Т., Маматов, Х. А., & Гаппаров, Ш. Т. (2022). ГОЛШТИН ЗОТЛИ ҚОРАМОЛЛАРДА ОЗУҚАЛАРНИ ТИРИК ВАЗН ЎСИШИ ВА СУТ БИЛАН ҚОПЛАШ КЎРСАТКИЧЛАРИ. АГРОБИОТЕХНОЛОГИЯ ВА ВЕТЕРИНАРИЯ ТИВВИЙОТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 513-516.
2. Великжанин В.И. Вопросы изучения поведения сельскохозяйственных животных. Методические рекомендации по изучению поведения сельскохозяйственных животных. – Л., 1975. – с. 3-10.
3. Суюнова З.Б., Амиров Ш.К., Гаппаров Ш.Т. Этологияси бўйича турли феъл-атвор типига мансуб сигирларнинг сут маҳсулдорлиги. // Чорвачилик ва наслчилик иши. 2020. № 6 (17). 8-10 б.
4. Скопичев В.Г., Максимюк Н.Н. Физиология животных: продуктивность. Москва «Юрайт». 2017. С. 44-47.
5. Юлдашев А.А. Голштин зотли сигирларнинг этологик кўрсаткичлари. // Агро-илм. 2019. № 2. 46-47 б.
6. Улитко, В.Е. Инновационные подходы в решении проблемных вопросов в кормлении сельскохозяйственных животных / В.Е. Улитко // Вестник Ульяновской государственной сельскохозяйственной академии. – 2014. - № 4 (28). – с. 136-147.
7. Tuychievna, A. M., Kuzibaevich, A. S., Ergashevna, K. S., Tajievich, G. S., & Elmuratovna, S. F. (2021). The Use of Feed Additives in the Diet of Cattle. European Journal of Agricultural and Rural Education, 2(6), 37-39.
8. Хатамов А. Х. Мясная продуктивность каракульских овец каракалпакского сура различных этологических типов // Овцы, козы, шерстяное дело. – 2018. – №. 4. – С. 26-26